
Xotin-qizlar faollari uchun seminar tashkillandi

Farg'ona Davlat universitetida xotin-qizlar faollari uchun o'quv seminar tashkillandi. O'quv seminarda ma'ruzachilar tomonidan "Mahalladagi xotin-qizlar faollarining normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlari", "Milliy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarning oila mustahkamligidagi o'rni", "Oilalarga psixologik yordam ko'rsatish va sog'lom turmush tarzi targ'iboti", "Xotin-qizlar faollari tomonidan mahallalarda ijtimoiy muammolarni o'rganish, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkil etish hamda jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish tartibi" to'g'risidagi eng zarur ma'lumotlar tahliliy tarzda yetkazib berildi.

Seminar davomida soha xodimlari tomonidan berilgan savollarga mutaxassislar javob berishdi. Kelgusi faoliyatni namunali tashkil etish yo'nalishlari belgilab olindi.

2023-08-23 13:13:57